

<https://hstryres.uz/journal/index.php/makro>

2025, № 3 (11)

ISSN-3030-3761



ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
Илмий журнали

ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
Научный журнал

HISTORICAL RESEARCHES
Scientific journal

ТОШКЕНТ-2025

ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАР
ИСТОРИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
HISTORICAL RESEARCHES

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосори:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief editor:

Шакиров Ильяс Рахимзянович
т.ф.ф.д., (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ
РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ
EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор, Академик
Ўзбекистон Миллий университети
Сулейманов Рустам Хамидович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Муминов Алишер Гаффарович
Сиёсий фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Зуев Андрей Сергеевич
тарих фанлари доктори, профессор
Новосибирск Давлат университети
Ишанхужаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулов Ахмад Баймаҳаматович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Габриэльян Софья Ивановна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Убайдуллаева Барно Машрабжоновна
тарих фанлари доктори, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Очилдиев Файзулла Бобокулович
тарих фанлари доктори, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Саидбобоев Зокиржон Абдукаримович
тарих фанлари номзоди, профессор
Ўзбекистон Миллий университети
Азизов Илдар Рафаэлович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Бизнес ва тадбиркорлик олий мактаби

Сиддиқов Равшан Бердимуратович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Тухтабеков Козимбек Азимбекович
тарих фанлари номзоди, доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Бабабеков Акбар Давурбаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Баҳранов Шерзод Таштурсунович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Жамоат ҳафсизлиги университети
Алиязарова Дилдора Валишеровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Холиқулова Шахноза Боймуҳамматовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Навоий Давлат педагогика институти
Нормуродов Дилмурод Раҳматуллаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Абдулаева Нигора Санжаровна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Давлат Жаҳон тиллари университети
Тоғаев Жасур Эркинович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Усаров Умид Абдумавлянович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент
Ўзбекистон Миллий университети
Эгамбердиева Гузаль Акрамжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети
Эшқувватов Бобир Валикул ўғли
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
Ўзбекистон Миллий университети

Контакт редакции журнала
Город Ташкент, улица Мирзо Голиба,
Исторический факультет
Национального Университета
Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Тел: +998900382203

Contact Editors of journal
Tashkent city, street of Mirzo Golib,
Faculty of history of the National
university of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek
Web: <https://hstryres.uz/journal/>
E-mail: I.Shakirov91@mail.ru
Phone: +998900382203

МУНДАРИЖА / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENT

1. Abdullaev Elbek Abduqahhor o'g'li AMIR TEMURNING 1393 YILGI ERON YURISHI	5
2. Akbarov Ravshan Xalimovich TURKISTONDA JADID MAKTABLARI TARMOG'INING VUJUDGA KELISHIDAGI SHART-SHAROITLAR	13
3. Бобожонов Шавкатжон Улуғбекович “ҚОЗОН ТЎЛДИ” – НАВРЎЗНИНГ БОЎИЙ МАРОСИМИ	21
4. Дусчанов Расулжон Рахимбаевич ЎЗБЕКИСТОН ССР МОЛИЯ ХАЛҚ КОМИССАРЛИГИ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ	34
5. Israilov Nodir Rahimjonovich LYUDOVIK XIV NI HAYRATLANTIRGAN SIYMO	41
6. Karimova Nazokat Voxidjon qizi ANTIK DAVR FARG'ONA VODIYSIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI TARAQQIY ETISHI	47
7. Maxmudova Muazzamxon Sultonmahmudovna AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI KUTUBXONALARI	53
8. Mo'minov Mironshoh Abdualim o'g'li THE IMPORTANCE OF SUSTAINABILITY: A PATH TO A GREEN FUTURE	61
9. Mubinov Muhammadali Akobirovich BUXORO AMIRLIGI TO'G'RISIDAGI MA'LUMOTLARNING YEVROPA MAMLAKATLARIDA OMMALASHUVI (INGLIZABON MUALLIFLAR ASARLARI ASOSIDA)	70
10. Нишонов Абдурашид Абдурасулович СЕВИНЧХОЖАХОН ХОНАДОНИ ТАРИХИ МЕМУАР АСАРЛАРДА ЁРИТИЛИШИ	84
11. Nishonov Abdurashid Abdurasulovich KELDIMUHAMMAD SULTON HUKMRONLIGI DAVRIDA FARG'ONA VODIYSIDAGI SIYOSIY JARAYONLAR	90
12. Ravshanov O'ktamali Rustam o'g'li BUXORO AMIRLIGI VA ERON MUNOSABATLARI TARIXIDAN	97
13. Raxmanova Odinaxon Ravshanbekovna., Odilov Muhammadqodir Olimjon o'g'li IBN AN-NADIMNING AL-FIHRIST ASARI TARIXIY MANBA SIFATIDA	107
14. Said Irandoust ESTABLISHING WORLD-CLASS RESEARCH UNIVERSITIES	114

Ravshanov O'. R.

Buxoro muzeyi ilmiy xodimi., tayanch doctorant (PhD)

Navoiy davlat universiteti

powerravshanov@mail.ru

BUXORO AMIRLIGI VA ERON MUNOSABATLARI TARIXIDAN

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Buxoro mang'itlaridan Amir Shohmurod, Amir Haydar va Amir Nasrullo davrida Eron bilan munosabatlar va Buxoroda eroniylar jamoasining shakllanish jarayoni yoritiladi.

Kalit so'zlar: Amir Shohmurod, Amir Haydar, Amir Nasrullo, Abbos Quli, Tabriziy, Marv, Husaynixon.

KIRISH

Buxoro amirligiga eroniylar kelish davri va soni turli yillarda o'zgarib turgan. Bu albatta avvalo, ikki o'rtadagi munosabatlarga, hukmdorlarning siyosatiga bog'liq edi. Bu jarayon turli tendensiyalarda kechgan. Dastlabki amirlar Shohmurod, Haydar, Nasrullo hukmronligi davrida eroniylar bosqinchilik natijasida Buxoroga ko'chirilgan. Amir Muzaffar, Amir Abdulahad davrlarida esa ular jamiyatning faol qatlamiga aylanib, davlat lavozimlarida ham faoliyat yuritishdi. Xususan, eroniylar quyidagi omillar asosida Buxoroda shakllandi:

- savdo bilan kelib yashab qolishdi;
- asir sifatida ko'chirildi;
- qul sifatida sotib olindi;
- g'olib sifatida yashab qolishdi;
- notinchlik va ish izlash ortidan kelishdi;

T.Fayziyev o'z tadqiqotida eroniy qullarning Buxoroga olib kelinishi haqida atroflicha to'xtalib o'tadi. Jumladan, XV asrda, Abdullaxon II davrida Mulla Shamsiddin chiqargan fatvo va keyinchalik eroniy shialarning qul qilib sotilishi bilan bog'liq fatvolar chiqarilganligi turli manbalar bilan ham asoslanadi[1].

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Yuqorida aytib o'tganimizdek, eroniylar bir qismining Buxoroda yashab qolishi Nodirshohning Buxoro xonligiga hujumlari bilan bog'liq. Movoraunnahr hududiga dastlab 1737-yilning iyulida Nodirshohning buyrug'iga bo'ysinmasdan o'g'li Rizoquli Qarshigacha hujum qilib kelib, bu yerda ko'p yo'qitishlardan so'ng otasining farmoni bilan ortga Balxga qaytishga majbur bo'lgan edi[2,3]. Keyingi

davrlarda bu shahar eroniylarning asosiy savdo markazlaridan biriga aylanishi shu vaqtdan boshlangan edi.

Ikkinchi bor Nodirshoh 1740 yilning 6-sentyabrida (١١٥٣ ١٤ جمادى الثانيه) Amudaryodan o'tdi va Hakimbiy otaliq bilan uchrashib, Abulfayzxonga nisbatan yaxshi niyatda ekanligiga uni ishontirdi. Shu yilning 11-noyabrida Nodirshoh Qorako'l orqali Buxoroga yaqinlashdi. Chor Bakr mavzesidagi kelishuvda Amudaryoning sharqi Abulfayzxon hukumronligida qoldi. Ammo 20000 nafar turkman va o'zbeklar[4,5] Nodirshoh qo'shiniga yollanishga majbur bo'ldi[6]. Hamda Abulfayzxonning bir qizi Nodirshoh haramiga va boshqa bir qizi Aliquli Mirzoga berildi. Amudaryo ikki o'rtada chegara bo'lishiga kelishib olishdi. Turli boyliklarga o'ch bo'lgan Nodirshoh bu vaqtda Lutfalixon boshliq jangchilarini Samarqandga yubordi. Ular Amir Temurning yashm qabrtoshi va maqbaraning temir darvozasini Mashhadga olib ketishdi[7]. Keyinchalik Buxorodagi hukumatning notinchligi sababli Nodirshoh bu yerga bir necha marotaba qo'shin yubordi. Eronda Nodirshoh vafotidan so'ng uning qo'shinlarining (afshor, qojar, kurd...) bir qismi Buxoroda qolishdi hamda o'zlari uchun shaharning janubi-sharqiy qismida Afshor mahallani makon qilishdi[8]. Buxoroda hukumatni qo'lga olgan Muhammad Rahimxon Nodirshohning boshqaruv uslubini davom ettirdi[9]. Turli viloyat va bekliklarning amirlarini o'zgartirdi. Shu davrda dastlabki eroniy g'ulomni qushbegi lavozimiga tayinladi.

Amir Shohmurod Jannatmakon davrida (1785-1800) Eron bilan munosabatlarda Marv voqeasi deyarli o'z davrining barcha manbalarda esga olib o'tiladi. Hatto bu davrda Eron tarixiga oid Jon Malcolmning asarida (1815-yilda Londonda nashr qilingan) amirning faoliyatiga 19 sahifa ajratilgan[10]. Muallif bu voqealarni o'z davrida bir necha insonlar bilan xususan, Bayram Alixon (otasi qojar urug'idan, onasi turkmanlarning solur qabilasidan) va o'g'i Hoji Muhammad Husaynxon bilan ham tanish bo'lganligini keltirib o'tadi.

1200-yil (1785-yil) amir Shohmurod Marv shohijonni (shoh jahon) egalladi. Mirzo Sodiq Munshiy bu jarayon tarixini “سر غلام گرفت و به پای دار انداخت” (sar g'ulom griftu bepoyi dor andox – qulning boshini oldi va dor tagiga tashladi – O.R.) deb yozadi. Bu xronogrammadan 1785-yil kelib chiqadi[11]. Amir bu jangda Murg'ob bandini vayron qildi. Marv suv ostida qoldi. Bu yerning hukmdori Bayramalixon Azdinlu qojarni qatl qilib o'rniga o'g'li Hojixonni qoldiradi. Keyinroq esa, uni ham boshqalar bilan Buxoroga ko'chirdi. Amir Haydar qushbegi Muhammad Hakimbiyga yo'llagan xatida: “Husaynxonning xotin va bachasini ulamo rivoyati bilan g'ulom va cho'ri qildik...1217” va ularni sotib yuborilishi haqida gap yuritiladi[12]. Ya'ni amir Shohmurod davrida olib kelingan Hojixon va oilasi 1802 yilda Haydarxon davrida ham qullik munosabatida edi. Keyinchalik ularga nisbatan munosabat iliqlashib, Hojixonxon Buxoroda Domlo Mirak

a'lamdan risolayi a'ruzda dars olgan edi[13]. Keyinchalik bu ilmlarni davom ettirdi. Hojixon Amir Husayn davriga kelibgina Tehronga qaytarib yuboriladi. Shoh uni yaxshi kutib oladi va Tehrondan vaqf mulklari ajratadi. Bu joyda u madrasa bunyod etdi. Hozirgi vaqtga qardar Erondagi yirik vaqf fondi "Xoni Marv" deb yuritiladi[14]. Marv egallangandan so'ng, jami 5000 kishi asir sifatida Buxoroga olib kelindi. Boshqa manbada esa bu jangda 30 ming marvlik va qizilbosh qo'shinni[15] ko'chirgani, u yerni hokimligiga ukasi Umarbiyni qoldirib, Marv shahridan quyiroqda Islomobod nomli shahar qurdirgani aytiladi[16]. Shu bilan birga, Zirabod eroniylari aynan shu davrda ko'chirilgan edi. "Qullar" romanida ham zirabodlik eroniy qullar haqida bir qator misollar keltiriladi[17]. Kavkazdagi urushlar bilan band bo'lgan Og'o Muhammadxon Qojor Shohmurodga noma yo'llab, unda oldingi davlat chegaralariga ishora qilib, Amudaryo ikki o'rtada chegara bo'lib qolishini so'raydi[18]. Ammo amir Shohmurod hukmronlik davrida yana bir necha marotaba Eronga qarshi yurishlarni amalga oshirgan.

Keyinchalik, Eronga qarshi harbiy yurishlarda G.Burnashevning yozishicha, 1795-yil boshlarida 15-16 ming qo'shinga amir Shohmurodning o'g'li Haydarxon boshchilik qildi.

Buxoro qo'shini jang paytida qo'rqinchli tarzda shovqin chiqaradi (hayqiradi). Jang davomida mardligi va epchilligi bilan ajralib turgan askarlar lavozim va maosh bilan mukofotlangan. Mag'lub bo'lganlar va ularning mulklari hukmdorga tegishli hisoblanadi. Ushbu jangda to'rtta fors shaharlarini egallash davrida buxoroliklar e'tiqod qiladigan islomning sunniy mazhabini qabul qilgan ikki shaharni avf qiladi. Qolgan g'oliblarning qonunlariga bo'ysunmay juda qattiq qarshilik ko'rsatib qo'shinga katta zarar yetkazgan ikkita shahar esa ayovsiz vayron qilinadi. Aholisining qolgan qismi asirga olinib, Buxoroda sotib yuboriladi[19]. Bu urushda ham jami 18 ming kishi asirlikda Buxoroga olib kelinadi.

Begijon 1794-95-yillarda (1209 hijriy) Mashhad darvozalarigacha jang qilib boradi[20]. Orqaga qaytishda Mashhadga aloqasi yo'q yerlarning aholisini ham Buxoroga ko'chirib keltiradi[21]. Hamda voliy Shohruh Mirzo va Xuroson zodagonlariga sunniylikka qatishni, aks holda yana yurish uyushtirishi haqida xat yuboradi. Ba'zi manbalarda, hatto Amir Shohmurod shu voqeadan keyin umrining oxirigacha har yil Xuroson zaminiga yurish qildi deyiladi. Bu vaqtda uning qo'shini 60 ming bo'lib, Xurosonga faqat 30 ming jangchi bilan yurish qilar edi[22]. O'zbek xonlari Xurosonga bir necha bor yurish qilsada, ammo biror marotaba bu muqaddas shaharni vayron qilishmagan[23].

Keyinchalik uning avlodlari ham Xurosonga yurishlarni davom ettirishadi. Jumladan, Amir Sayyid Haydar 1221 yil(milodiy 1806-1807-yil) da Marvgacha hujum qildi. Bu vaqtda sarkardasi Niyozbek parvonachi Sultonbandni buzib, ikki

yuz oilani Buxoroga ko'chirib keldi[24]. Amir Haydar Xurosonga 1810-yilda yurish qilib, Marvdan 40000 forslarni Buxoroga ko'chirdi. Ushbu ko'chirilgan xalqlarni Nodirshoh Azarbayjon, Qorabog'dan ko'chirib keltirgan tirklar edi[25]. Shuning uchun ham ularning tili turkiy tilning bir lahjasi edi[26]. Bu ma'lumotni O.Olufsen Buxoro amirligining Buxoro va Samarqand shaharlarida amir Haydar hukmronligi davrida 40 ming fors oilasi mavjud bo'lganligini qayd qilgan. Ular suniy mazhabida bo'lsada, ich-ichidan yuragida shia mazhabida bo'lgan deb yana to'ldiradi[27].

1813-yilgi yurish esa muvofaqiyatsiz tugadi. Amirning ukasi Din Nosirbek otasi Shohmurod davrida Marvga hokim qilib yuborilgan edi. Ammo u keyinchalik amir Haydarga bo'ysinmadi. Amir Haydar bir 3-4 yil davomida har yili ikki martadan Marvga hujum uyushtirar edi. Ikki o'rtada janglar bo'lib o'tdi va Din Nosirbek oilasi (ikki ayoli, uch kichik farzandi va ellik mahram) bilan Mashhadga ko'chib ketdi. Busafar ham amir Marv aholisining bir qismini Buxoroga ko'chirib keltirdi[28].

Ammo ikki o'rtadagi munosabatlar ijobiy bo'lmasligiga faqat Buxoro amirligi yoki turkmanlar sababchi bo'libgina qolmay, Eron va Rossiya o'rtasidagi munosabatlarda Buxoro amirligiga nisbatan dushmanona munosabatlar ham seziladi. Masalan, 1817-yil (1232 hijriy) Eron shohi huzuriga kelgan Rossiya elchisi keltirgan masalalarni ikkinchisi Xiva va Buxoro hududida rus karvonlari talanayotganligi sababli, bu davlatlarni Eron yoki Rossiya tomonidan bo'ysundirilishi masalasi qo'yilgan edi[29].

XIX asr boshlarida Buxoroda forslar ko'pchilikni tashkil etib, ularning asosiy qismi qullardan iborat bo'lgan. Ularning biroz qismi sotish uchun olib kelingan. Katta qismi esa amir Sayyid davrida Marvdan ko'chirib keltirilgan. U davlatni himoya qilish maqsadida o'zidan uzoq bo'lmagan joyda 4000 marvliklar oilasini Samarqand atrofiga ko'chirdi. Ular Nodirshox davrini ko'p eslashadi va bu davrlar yana qaytib keladi deb o'ylashadi. Buxoro amirlari va amaldorlari ularga ko'p ishonishgan. Buxoro amirligining 500 nafardan iborat qo'shini tarkibida 450 nafar fors sarbozlari xizmat qilgan. H. Vamberi ham o'z asarida kelibchiqishi eroniy bo'lgan bir necha yuqori lavozimdagi harbiy amaldorlar Muhammad Hasanxon, Zaynalbiy, Mahdibiy, Lashkarbiylarni ham sanab o'tadi[30]. Shuningdek, dasturxonchi ham ozod qilingan marvlik edi[31].

Hukmdorlar odatiga ko'ra taxtga chiqqandan so'ng turli davlatlarga elchilar yuborishgan. Amir Nasrilloh taxtga chiqqach Qobilbek qarluqni Eronga yuboradi. Ammo Eron shohi Muhammadshoh (1834-1848) Eroniylarning Buxoroda qul qilib sotilishidan norozi ekanligini bildirib elchini xushlamaydi. Istanbulga yuborilgan elchisi Boltaqulbek Chig'atoybek Eron orqali o'tib shoh huzuriga kiradi. Shoh unga ham oldingidek norozilik munosabatini qilganda elchi ikki davlat o'rtasida

turkmanlarning bu ishlarni amalga oshirayotganliklari va buxoroliklar muruvvat yuzasidan ularni yaxshi narxda sotib olib, keyinchalik ozodlik berayotganliklarini aytadi. Shoh nisbatan bu javobdan mamnun bo'ladi[32]. Amir Nasrullo taxtga kelgan davridan boshlab ozod qilingan eroniy qullardan davlat boshqaruvida foydalanish avj ola boshladi. Shulardan biri Ayoziy bo'lib, u to'pchiboshi lavozimigacha ko'tarilgan edi. Shu bilan birga, amir Nasrullo hukmronligi davrida Buxoro qo'shini tuzilishida katta o'zgarishlar bo'ladi. Bu jarayonga eroniy Abdusamad Tabriziy rahbarlik qiladi. Abdusamadxon noib dastlab fors qo'shini tarkibida xizmat qilgan. Qotillikda ayblanib hibsga olinadi. Keyin esa zindondan qochib Hindistonga, Fatx Alishohning inglizlar homiyligida bo'lgan qarindoshiga xizmat qiladi. Boshqa xizmatchilar bilan kelishib o'z xo'jayinini o'ldiradi. Shundan so'ng u qo'lga olinib Oliy Sud qarori bilan osishga hukm qilinadi. Ammo bu safar ham uning omadi kelib Qobulga, afg'on amiri Do'st Muhammadxon saroyiga qochib keladi. Tabiatan qo'pol va janjalkash Abdusamad amirning o'gli Muhammad Akbar bilan janjallashgandan so'ng, 1838-yilda amir Nasrullo oldiga keladi[33]. Turli manbalarda uning inglizlar bilan yaxshi munosabatda ekanligi ziddiyatlarga sabab bo'lganligi eslatib o'tiladi[34]. Shu sababli amir Nasrullo ham oxiri uni qatl qildiradi.

1844-yil Muhammadshoh Qajar amir Nasrulloxon huzuriga uning Eronga yuborgan elchisi Sayyid Halilxo'ja bilan birgalikda Abbas Qulixonni 45 xodim, 23 ot, 14 xachir, 29 tuya bilan yuboradi. Elchi Buxoroda o'zi uchratgan eroniylar haqida so'zlab davom ettiradi: Buxoroga kelganda Qorako'lda Husaynixon eroniy biy (bu yerda harbiy lavozim – O'.R.) edi. Bu amirlikda katta mansablardan biri edi. U 40 yil oldin (elchilikdan) Go'klan urug'idan bo'lgan 16 yoshli Husaynixon turkmanlar tomonidan asir olinib, Urganch tomonga olib kelingan. Keyinchalik turli kishilarga sotilib, amir Haydar davrida saroyga keltiriladi va Nasrulloxon davrida ushbu mansabgacha ko'tariladi va o'z e'tiqodiga (shialik) yashirin amal qilib kelar edi. Uning amir bilan munosabatlari shu davrda yaxshi bo'lib, Qorako'lda hokimlik qilar edi. U bilan uchrashuv maxfiy tarzda kechda bo'lib o'tgan. Elchilikning turli maqsadlari bo'lib, Muhammadshohning ikki davlat o'rtasida do'stona munosabatlarni o'rnatish istagida ekanligi, qullikka tushgan eronliklarni qutqarish va bu jarayonni taqiqlashga oid amir buyrug'ini olishga erishish, tarixiy jarayonning qaltisligidan kelib chiqib, ingliz hukumatiga nisbatan iliq munosabatlarni amirda uyg'otishdan iborat edi va bu maqsadlariga qisman erishadi. Jumladan, 1000 dan ortiq eronlik qulni amir farmoni bilan olib ketadi hamda Jozef Volfni ham o'limdan qutqarib oladi. Elchining yozishicha, hali biror elchi bu ishni amalga oshira olmagan edi. Elchi o'z safarnomasida Muhammadshoh ham Sayyid Xalil xo'ja orqali amirning istaklarini ijobiy hal qilgani eslatib o'tiladi. Sayyid Xalil Xo'jaga safar davomida beklar turli feruza

toshlar, kashmiriy sharf, yengil yaktak, tilla pullar kabilarni tuhfa qilishgan. Bu elchilik Buxoro-Eron munosabatlari tarixini o'rganishda o'z ma'lumotlarining tadrijiy va shaxsiy kuzatishlar asosida yozilganligi alohida ahamiyatga ega. Ammo elchida o'z davlatiga nisbatan yon bosish holatlari ham kuzatiladi.

Amir Nasrulloxon Qo'qon bilan urushi vaqtida Xiva xoni Olloqulixon Marvga yurish qilib, 40 ming oilani Xorazmga ko'chirib keltiradi. Ya'ni bu shahar aholisi ikki davlat tomonidan ham doimo bosqinga uchrab, ko'chirilgan. Marvda Buxoro, Xiva yoki Eron tomonidan hokim almashtirib turilgan.

Abbos Qulixon safarnomasida yana bir boshqa manbalarda uchratilmagan ma'lumot bo'lib, amir Nasrulloh ukasi Husaynxonni (elchi Buxoroda bo'lganida uning uyiga joylashtirilgan) shialikda gumon qilib ham o'ldirtirgan. Albatta bu ma'lumot boshqa manbalarda uchratilmadi. Ammo eronlik elchining bu jihatni eslatib o'tishini ham inkor qilib bo'lmaydi.

Elchining eroniy qullar borasidagi ya'ni ularni ozod qilish, musulmon ekanliklarini eslatish kabi vajrlariga amir, "bu odatlar qadimdan qolgan biz o'ylab topmaganmiz" qabilida javob beradi. Bu ish oson bo'lmasligi masalani ikki davlat ulamolari hal qilishlarini ham qo'shimcha qiladi. Ammo shialarni asir sifatida oldi-sotdi qilish masalasi shayboniylar davrida ulamolar tomonida hal qilingan edi. Nodirshoh davrida ham bu masala yuzasidan ulamolarning katta yig'ilishlari bo'lib natijasiz tugagan edi. Amir esa kelgusida ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar yaxshilansa, bu masala ham ijobiy hal qilinishini elchiga uqtiradi va hozirdan ba'zi targ'ibot buyruqlarini chiqarishini aytadi.

Amir elchining eroniy qullarni ozod qilish haqidagi iltimosiga bir necha uchrashuvlardan so'ng rozi bo'ladi. Oxirgi uchrashuvda (elchining yozishicha, faqat amir bilan pinhona o'tgan) Buxoroda mavjud eronliklarni uch yuzmi to'rt yuzmi elchiga hamroh qilishini va o'ttiz ming tillo berib sotib olgan ming nafarga yaqin eronlik g'ulomlarini sarbozlikdan ozod qilib, ularni ham elchi bilan birga yuborishni va'da bergan. Hatto elchining mahorati bilan amir "kim agar ketishga moyil bo'lsa hech kim unga qarshilik qilmasligini, elchi o'zi bilan birga olib ketishi mumkin" deb aytadi va amir bu haqida farmon ham chiqaradi[38]. Natijada mingdan ortiq qul jamlandi. Ularning 150 nafari o'z ozodligini sotib olishga ham ulgurishgan edi. Shuningdek, 26 nafar (5 nafari sayyidlar avlodidan) qulni ham elchi o'z puliga sotib olib ozod qildi. Elchi Eronga qaytishida amir unga miroxur Subxonqulibekni o'z elchisi qilib yubordi. Katta karvon bilan ketayotgan elchilik turkman sahrolaridan o'tib Mashhadgacha yetib borish yo'lida amir bergan omonnomaning amal qilishi bu yerlarda ham Buxoro amirining ta'sir kuchi davom etganligini bildiradi.

Amirlikda bu davda 20 ming qo'shin bo'lib, faqat Abdusamad Tabriziy qo'mondonligidagi 1000 nafar sarboz va 200 nafar to'pchilar davlat xazinasidan

maosh olishgan. Barcha sarbozlar uchun O'g'lon va Tallipoch darvozalari orasida "sarbozxona" va maxsus uylar qurib berilgan edi[39]. Eronlik qullar bilan bog'liq amirlikda yaratilgan tizimlardan yana biri Amudaryodan o'tadigan har bir tutqun 5 tillodan berishi kerak edi (qochoqlarning bilak yoki son qismiga muhr urilgan va ular qaytarib egalariga berilgan)[40]. Natijada ozod bo'lganlar bu mablag'ni ham topishlari talab qilinar edi. Bunday mablag'ni so'rab o'z yurtlariga turli nomalar ham yuborib turishgan[41]. Bu chegara pullari esa Abdusamad Tabriziyga suyurg'ol qilingan bo'lib, sarbozlar maoshiga qo'shilar edi. Shaxrisabzda amir tashrifi davomida udaychidan so'ng amir o'zining yuzlab asir tushgan eronlik qulbachchalardan tashkil topgan otliq tan qo'riqchilari hamroxligida bormoqda edi[42].

XULOSA

Eroniylar orasida shialik keng tarqalgan Somoniylar davridan boshlab Buxoroda ularning jamoalari shakllana boshladi. Ular ummaviylar zulmidan qochib bu islom sharqiga kelishgan edi. Keyingi asrlarda esa ular turli davlat birlashmalarini ham tashkil etishdi. Saffaviylar davrida davlat dini shialikka o'tgach Shayboniylar ularga qarshi g'azot qildilar. Bu vaqtda ular kamaytirish va qatla qilish siyosati yuritildi. Ya'ni qattiq taqibga uchradi. Buxoroda mang'itlar sulolasi boshqaruvi davrida esa ularni asir qilib ko'chirish siyosati ustunlik qildi. Bu davrda hozirgi Buxoro va Samarqand eroniylari jamoasi shakllandi.

Buxoro amirligi va Eron o'rtasidagi munosabatlar mang'itlar boshqaruvi davriga kelib harbiy yurishlar Buxoro tomonda ustunlik qilganligi bilan xarakterlanadi. Shuningdek, bu jarayonda Marv shahrini bosib olish va turkmanlarning "olomon"chilik faoliyatlari asosida Buxoro amirligining Buxoro va Samarqand shaharlari hamda ularga tutash yerlarda eroniylarning qishloqlari paydo bo'ldi. Ular jamiyatda asosan hunarmandchilik va harbiy ishlarni bajarishar edi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Файзиев Т. Бухоро феодал жамиятида қуллардан фойдаланишга доир ҳужжатлар. Т.: 1990. В –9.

2. استرآبادی، محمد مهدی بن محمد نصیر، جهانگشای نادری، صفحه: ۲۹۶، انجمن آثار و مفاخر فرهنگی، تهران - ایران، ۱۳۷۷ ه.ش.

3. مینورسکی، ولادیمیر فنودوروویچ، ایران در زمان نادرشاه، صفحه: ۲۵، دنیای کتاب، تهران - ایران، ۱۳۸۷ ه.ش.

4. Sir Sykes "A history of Persia" asarida 8 ming deb ko'rsatadi.

5. ملکم، جان، تاریخ کامل ایران، جلد: ۲، صفحه: ۶۰۷، افسون، تهران - ایران، ۱۳۸۰ ه.ش. asarida 10000 deb ko'rsatilgan.

6. مینورسکی، ولادیمیر فنودوروویچ، ایران در زمان نادرشاه، صفحه: ۳۱، دنیای کتاب، تهران - ایران، ۱۳۸۷ ه.ش.
7. Keyinchalik Nodirshoh pushaymon bo'lib ularni qaytarib Samarqandga yuborgan.
8. Мирзо Салимбек. Кашкўли салимий таворихи муттақадимин ва муттаахирин. Форс тилидан таржими Н.Йўлдошевники. Бухоро. 2003.В.- 283-86.
9. محمد يعقوب بخارى. گلشن الملوك. Buxoro viloyat axbarot resurs markazi. S. 205. Inv. 297.
10. Ma'lumotlar juda batafsil yotilgan bo'lib, amirning kiyimlaridan tortib suhbatlarigacha e'tibor berilgan. Masalan, muallif: "bu g'ayri oddiy insonning ismi Ameer Maassoom (amir Ma'sum) bo'lib, uning unvoni Shah Moorad (Shohmurod) ya'ni, "orzu qilingan shoh", ammo uning barchaga yaxshi ma'lum va mashhur ismi Beggee Jan (Begijon) edi. Vatandoshlari ham aynan uning ushbu ismini yoqtirib aytishar edi. Men ham o'z asarimda boshqa ismlardan shuni Afzal ko'rdim" – deb yozadi Jon Malcolm.
11. Мухаммад Содик Гулшаний. Тарихи хумаюн. Перевод с таджикского, предисловие, примечание Амрияздон Алимардонов. Д.:2016. С.64.
12. Maktuboti Amir Haydar. O'zFASHI. Qo'lyozma. Inv.№5412. 279-maktub.
13. Қори Раҳматуллоҳ Бухорий. Тухфат ул аҳбоб фи тазкират ул асҳоб(севгувчилар туҳфаси (бўлмиш) дўстлар тазкираси).Бухоро. 2001.Б. 19.
14. مسعود حسینی پور. برده های ایرانی در ورارود. تهران: ندای تاریخ. 1402.ص.1451.
15. محمد يعقوب بخارى. گلشن الملوك. 209 س. Buxoro viloyat axbarot resurs markazi. Inv. 297.
16. Мирзо Салимбек. Кашкўли салимий таворихи муттақадимин ва муттаахирин. Форс тилидан таржима Н.Йўлдошевники. Бухоро. 2003.В.- 289.
17. Садриддин Айний. Асарлар. 8 томлик. 3-том: Қуллар. Роман. Т., 1964.
18. مسعود حسینی پور. برده های ایرانی در ورارود. تهران: ندای تاریخ. 1402.ص.1834.
19. Григориевъ Спасскимъ. Сибирский вестникъ. Часть первая. С-Петербургъ.1818.С.122-127.
20. Rivoyatlarda aytilishicha, u imom Rizoni tushida ko'radi va imom unga shaharni fatx qilish niyatidan qaytishni buyuradi.
21. ملکم، جان، تاريخ کامل ایران، جلد: ۲، صفحه: ۶۱۵، افسون، تهران - ایران، ۱۳۸۰ ه.ش.
22. حمون کتاب. صفحه: ۶۲۱، افسون، تهران - ایران، ۱۳۸۰ ه.ش
23. سایکس، سر پرسی مولزورث، تاريخ ایران / سایکس، جلد: ۲، صفحه: ۴۲۳، افسون، تهران - ایران، ۱۳۸۰ ه.ش.
24. Мирзо Салимбек. Кашкўли салимий таворихи муттақадимин ва муттаахирин. Форс тилидан таржима Н.Йўлдошевники. Бухоро. 2003.В.- 294.

25. H. Vamberi. Travels in Central Asia: being the account of a journey from Teheran across the Turkoman desert on the eastern shore of the Caspian to Khiva, Bokhara and Samarcand, performed in the year 1863 by Arminius Vambery. London, John Murray, Albemarle street. 1864. 370 p.

26. Hozirgi Samarqand eroniylarining asosiy qismi aynan shu davrda ko'chirilgan va o'z tillarini saqlab qolishgan.

27. Olufsen O. The emir of Bokhara and his country. Journeys and studies in Bokhara. London, 1911. P. 287.

28. 45. میرزا شمس بخازی. بخارا و خوقند و کاشغر. 1859. در ماه ربیع الثانی. 1861. قازان. س. 45. بیان بعض حوادث

29. علی اصغر شمیم. ایران در دوره سلطنت قاجار. تهران. بهمنماه 1342 شمسی. 67 س.

30. Vamberi H. Travels in Central Asia: being the account of a journey from Teheran across the Turkoman desert on the eastern shore of the Caspian to Khiva, Bokhara and Samarcand, performed in the year 1863 by Arminius Vambery. London, John Murray, Albemarle street. 1864. P.371.

31. Ханыков Н.В. Описание Бухарского ханства. С-Петербург. 1843. С.70-71.

32. Мирзо Салимбек. Кашкўли салимий таворихи муттақадимин ва муттаахирин. Форс тилидан таржима Н.Йўлдошевники. Бухоро. 2003.В.- 298.

33. N. Hanikov ham shu yilni ko'rsatadi. Qarang: Н.В.Ханыков. Описание Бухарского ханства. С-Петербург. 1843. С.232.

34. Аббос Кулихон. Бухоро сафарномаси (Амир Насруллоҳон ва Муҳаммадшоҳ Қожор ўртасидаги дипломатик муносабатларга доир.1844 йил). Т: 2019. Б. – 4.

35. Ўша асар. Б. – 79.

36. Троицкая А.Л. Военное дело в Бухаре . В первой половине XX века. Сборник статей по истории и филологии народов Средней Азии. Сталинабад. 1953. С.213.

37. Т.Файзиев. Бухоро феодализмда куллардан фойдаланишга доир ҳужжатлар. Т.: 1990. Б.31.

38. Alex Burnes. Travels into Bokhara; Being the account of A Journey from India to Cabul, Tartary, Persia; Also, Narrative of A Voyage on the Indus, from the Sea to Lahore, with the present from the King of Great Britain. London. 1834. Vol. II, P.342.

39. Н.А.Маев. Бухоро хонлиги очерклари. Т. 2012. Рус тилидан т.ф.н. доцент Исмоил Ботиров таржимаси. Б.29.

Ravshanov O. R.

Scientific researcher at the Bukhara Museum., basic doctoral student (PhD)

Navoi state university

powerravshanov@mail.ru

HISTORY OF THE RELATIONS BETWEEN THE BUKHARA EMIRATE AND IRAN

ABSTRACT

This article examines relations with Iran during the reign of the Bukhara Mangids Amir Shahmurad, Amir Haydar and Amir Nasrullah and the process of the formation of the Iranian community in Bukhara.

Keywords: Amir Shahmurad, Amir Haydar, Amir Nasrullah, Abbas Quli, Tabrizi, Merv, Husayn Khan.

Равшанов О. Р.

Научный сотрудник музея Бухары., базовый докторант (PhD)

Навоийский государственный университет

powerravshanov@mail.ru

ИСТОРИЯ ОТНОШЕНИЙ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА С ИРАНОМ

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются отношения с Ираном в период правления бухарских Мангидов Амира Шахмурада, Амира Хайдара и Амира Насруллы и процесс формирования иранской общины в Бухаре.

Ключевые слова: Амир Шахмурад, Амир Хайдар, Амир Насрулла, Аббас Кули, Тебризи, Мерв, Хусейн-хан.